



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№ 10



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 48 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	18
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI.....	30
Musayeva Shoira Azimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	



MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI

Zakirov Ansabxon Akaidinovich

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda mahsulotlarning muvofiqligini baholash amaliyoti hamda akkreditatsiya jarayonining bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat muassasi ma'lumotlari asosida akkreditatsiya jarayonlarini tashkil etish bosqichlari va xarajatlar kalkulyatsiyasiga oid ma'lumotlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: mahsulot, mahsulotlar muvofiqligi, akkreditatsiya jarayoni, sertifikat, xarajatlar kalkulyatsiya.

Abstract: The article highlights the practice of conformity assessment of products in Uzbekistan as well as the main stages of the accreditation process. In addition, based on the information provided by the Uzbekistan Accreditation Center, the article presents data on the organizational stages of accreditation procedures and the calculation of related costs.

Key words: product, product conformity, accreditation process, certificate, cost calculation.

Аннотация: В статье описывается практика оценки соответствия продукции в Узбекистане и этапы процесса аккредитации. Представлена информация об этапах организации процесса аккредитации и расчёт стоимости на основе данных государственного учреждения «Центр аккредитации Узбекистана».

Ключевые слова: продукция, соответствие продукции, процесс аккредитации, сертификат, калькуляция стоимости.

KIRISH

Mahsulotlarning muvofiqligini baholash bu mahsulotning belgilangan talablarga, jumladan, normativ hujjatlar (standartlar, texnik reglamentlar) hamda buyurtmachi tomonidan belgilangan talablar asosida mos kelishini aniqlash jarayonidir. Ushbu baholash jarayoni namunalar olish, sinovlar o'tkazish, tekshiruv, muvofiqlikni tasdiqlash kabi usullarni o'z ichiga oladi. Mazkur jarayon mahsulot sifati va xavfsizligiga ishonchni oshirish, texnik to'siqlarni kamaytirish hamda bozor ishtirokchilari o'rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur amaliyotning asosiy maqsadi mahsulot va xizmatlarning iste'molchi hamda jamiyat uchun xavfsizligi va ishonchliligini kafolatlashdir. Bundan tashqari, muvofiqlikni baholash texnik to'siqlarni kamaytirish, xalqaro savdo jarayonlarini soddalashtirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni global bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan, mazkur tizim xalqaro standartlashtirish hamda akkreditatsiya mexanizmlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, O'zbekiston sharoitida ham milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga bevosita hissa qo'shadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muvofiqlikni baholash tizimini joriy etish mahsulot sifatini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosozlik va xavflarni oldindan aniqlashga yordam beradi. Shu orqali nafaqat iste'molchilar huquqlari himoya qilinadi, balki davlat darajasida sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi ham ta'minlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

ISO 3534-2:2006 standartida ta'kidlanishicha, mahsulot muvofiqligini baholash jarayonida tanlanadigan tasodifiy namuna shunday shakllantirilishi lozimki, unda qayd etilgan kuzatuv natijalari butun to'plam tarkibidagi qiymatlar bilan bir xil taqsimot xususiyatlariga ega bo'lishi lozim [4]. Boshqacha qilib aytganda, namuna umumiy to'plamning statistik jihatdan asosiy o'lchov belgisi sifatida qo'llanilishi talab etiladi, bu esa baholash natijalarining ishonchliligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

P.Rostron va T.Fearnning fikriga ko'ra, mahsulotlar muvofiqligini baholashning o'lchov noaniqligi bo'yicha keltirilgan natijalar uning haqiqiy qiymatini ifodalamaydi, biroq haqiqiy qiymat mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan ishonch oralig'ini aniqlash imkonini beradi [5]. Bu yondashuv mahsulotlar muvofiqligini baholash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki iste'molchi xavfsizligi va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha qarorlar faqat aniqlangan qiymatlar emas, balki ular bilan bog'liq noaniqliklarni hisobga olgan holda qabul qilinadi. Shunday ekan, o'lchov noaniqligining ishonch oralig'ini aniqlash mahsulotning standartlarga muvofiqligini baholashda xavflarni kamaytiradi va qaror qabul qilishning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.



W.Alex va M.Bertil ta'kidlashicha, "mos namuna" tushunchasi mahsulotlar muvofiqligini baholash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki namunadan kelib chiqadigan noaniqlikni e'tibordan chetda qoldirish, ko'pincha, umumiy o'lchov noaniqligining ishonchli bahosiga asoslangan qaror qabul qilish qoidalarini izdan chiqarishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, mahsulotning belgilangan talab va standartlarga muvofiqligini baholash natijalarining haqqoniyli va ishonchligiga jiddiy xavf tug'diradi [6]. Shu bois, na'muna asosida mahsulotlar muvofiqligini baholash jarayonida kelib chiqadigan noaniqlikni hisobga olish dolzarb hisoblanadi.

S.Mjakuškina va I.Lapiņa tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, muvofiqlikni baholash jarayonida asosiy bosqichlar ishlab chiqaruvchi tomonidan tashkil etilishi lozim. Yevropa Ittifoqi tartibga solish organlari ishlab chiqaruvchidan mahsulotning muvofiqligini tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini baholash uchun zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olgan texnik hujjatlarni tayyorlashni, ishlab chiqarish jarayoni va uning monitoringini tashkil etishni talab qiladi [7]. Fikrimizcha, bu talablar mahsulotning sifatini va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqaruvchi faoliyatining tizimli va shaffof bo'lishini kafolatlaydi. Shu tarzda, texnik hujjatlarni tayyorlash va ishlab chiqarish jarayonini muntazam nazorat qilish orqali mahsulotning muvofiqligi va ishonchligi yuqori darajada ta'minlanadi.

A.Gallup fikriga ko'ra, 2008-yilda yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz natijasida muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lgan mahsulotlarni qaytarib olish holatlari kuzatilgan bo'lib, bu iste'molchilarning oziq-ovqat va boshqa iste'mol tovarlarining xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatgan [8]. Fikrimizcha, ushbu holat ishlab chiqaruvchilarning sifatni nazorat qilish tizimlarini takomillashtirish, sertifikatlash jarayonlarini yanada qat'iyalashtirish va iste'molchilarga mahsulot xavfsizligi bo'yicha yetarli ma'lumot berish zaruratini kuchaytiradi. Bu esa nafaqat iste'molchilar ishonchini tiklash, balki umumiy bozor barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

T.Воротынцева ilmiy izlanishlarida mahsulotlar muvofiqligini tasdiqlash (sertifikatlash) xalqaro savdoni tartibga solishda muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Muallif ta'kidlashicha, mahsulotlarni sertifikatlash xalqaro savdoda xavfsizlikni ta'minlash hamda savdo jarayonlarini soddalashtirishda asosiy rol o'ynaydi [9]. Shu bilan birga, sertifikatlash jarayoni mamlakatlar o'rtasida standartlar uyg'unligini yaratishga yordam beradi, bu esa global bozorlarda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

T.Yusupov fikriga ko'ra, bozor sharoitida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish sanoat sohalarida metrologik ta'minotni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir [10]. Metrologik tizimni takomillashtirish ishlab chiqarish jarayonlarida yuqori aniqlik, mahsulot sifati va xavfsizligini kafolatlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy metrologiya nafaqat o'lchovlarning ishonchligini ta'minlaydi, balki ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida texnologik jarayonlarning barqarorligini, standartlarga mosligini va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlash eksport salohiyatini oshirish, ichki bozorda esa iste'molchilar ishonchini mustahkamlashga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola O'zbekistonda mahsulotlarning muvofiqligini baholash amaliyoti va akkreditatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro standartlar tahlili, "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" faoliyatining institutsional jihatlarini o'rganish, amaliyotda akkreditatsiya jarayonlariga sarflanadigan vaqt va xarajatlarni tahlil qilish, shuningdek, boshqa davlatlar tajribasi bilan taqqoslash orqali olib boriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda mahsulotlarni muvofiqlikni ta'minlash tizimi xalqaro tajriba va standartlar asosida shakllanib, iste'molchilarning xavfsizligini ta'minlash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu borada "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat muassasasi tashkil etilgan bo'lib, mamlakatda muvofiqlikni baholovchi organlar, laboratoriyalar va inspeksiya tashkilotlarini xalqaro standartlar asosida akkreditatsiyalash, ularning texnik salohiyati va ishonchligini baholash, hamda muvofiqlikni baholash tizimining xalqaro tan olinuvchanligini ta'minlash bilan shug'ullanadi. Markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-martdagi "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3643-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan [2]. Markazning huquqiy maqomi va funksional faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-apreldagi "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 349-sonli qarori bilan belgilangan [1, 3].

"O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM faoliyatida akkreditatsiya jarayonining ilmiy-nazariy asoslari va institutsional mexanizmlarini shakllantirishda huquqiy-regulyativ hujjatlar muhim o'rin tutadi. Xususan, ushbu



jarayon Akkreditatsiya markazi tomonidan tasdiqlangan 13 ta asosiy metodikalar asosida olib boriladi. Ular xalqaro ISO/IEC standartlariga mos keladi va milliy kontekstga moslashtirilgan holda qo'llaniladi.

1-jadval. "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM tomonidan akkreditatsiya va texnik jihatdan malakalilikni baholash xizmatlari uchun to'lovlarni belgilashda "kishi/kun" birlik qiymatini hisoblash bo'yicha xarajatlar kalkulyatsiyasi [11]

№	Xarajatlar nomi	Xarajatlar miqdori (so'mda)
1	Xizmatlar tannarxi	1 000 165
1.1	Ishlab chiqarish xususiyatiga ega mehnatga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar, shu jumladan:	722 258
	- Markaz ishlab chiqarish xodimlarining o'rtacha ish haqi	644 873
	- Ijtimoiy soliq	77 385
1.2	Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega boshqa xarajatlar	277 908
2	Doimiy xarajatlar	645 400
3	Ma'muriy xarajatlar	531 700
4	Operatsion xarajatlar	113 700
5	Soliqlar	665
6	Sof foyda	3 769
7	Talab qilinadigan foyda	649 834
8	Xizmatlar narxi (QQSsiz)	1 650 000
9	Xizmatlar narxi (12% QQS bilan)	1 848 000

Ushbu jadval "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM tomonidan akkreditatsiya va texnik malakalilikni baholash xizmatlari uchun belgilangan to'lovlarni hisoblashda foydalaniladigan "kishi/kun" birlik qiymatini asoslovchi kalkulyatsiyani aks ettiradi. Jadvalda xizmatlar tannarxi, ish haqi va unga bog'liq ijtimoiy soliq, ishlab chiqarish xarajatlari, doimiy xarajatlar (ijara, ma'muriy, operatsion), soliqlar, sof foyda va talab qilinadigan foyda kabi elementlar keltirilgan. Umumiy hisobda, xizmatlar tannarxi QQS (qo'shilgan qiymat solig'i)siz 1 650 000 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, QQS (12%) bilan birga yakuniy narx 1 848 000 so'mga teng bo'ladi.

Mazkur kalkulyatsiya orqali xizmat ko'rsatish jarayonida sarflanadigan resurslar, ish kuchi va moliyaviy majburiyatlar asosida adolatli narx shakllantirilgan. Ayniqsa, mehnatga haq to'lash, ijtimoiy soliq va operatsion xarajatlar asosiy ulushni tashkil qilgan bo'lib, bu akkreditatsiya jarayonining murakkabligi va ko'p bosqichlilikini ko'rsatadi. Jadval nafaqat xarajatlar tuzilmasini, balki foyda keltiruvchi omillarni ham hisobga olgan holda iqtisodiy jihatdan asoslangan narxni shakllantirishga xizmat qiladi.

Akkreditatsiya tizimi muayyan standartlarga javob beradigan inspeksiya organlarini tan olish, ularning texnik salohiyati va boshqaruv tizimining ishonchlilikini baholash orqali amalga oshiriladi. "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat muassasasi tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma inspeksiya o'tkazuvchi organlarni (IO) akkreditatsiyalash jarayonida zarur bo'lgan haqiqiy mehnat hajmini aniqlash mexanizmini taklif etadi. Mazkur yondashuv inspeksiya organlarining faoliyatini akkreditatsiya doirasida obyektiv va iqtisodiy asoslangan tarzda baholash imkonini beradi.

2-jadval. Akkreditatsiya paytida ishlarning haqiqiy mehnat hajmini hisoblash, T_f [11]

Xizmatlar ro'yxati	Ishlarning haqiqiy mehnat hajmi (T_f), kishi/kun
Taqdim etilgan hujjatlar tahlili (ekspertiza):	
sifat tizimi menejmenti hujjatlarini tahlili (ekspertiza);	2
ma'lumot va akkreditatsiya sohasi loyihasi tahlili (ekspertiza);	$N \cdot \frac{15}{480}$
Hujjatlarni rasmiylashtirish.	1
Joyning o'zida baholash:	
sifat tizimi menejmenti ishlashini baholash;	2



asosiy ma'lumotlarga muvofiq xodimlarning malakasini baholash, shaxsiy kartalardagi ma'lumotlarni o'rganish, suhbatlar, xodimlar tomonidan murojaat qilingan sohada muvofqlikni baholash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini namoyish etish paytida kuzatish orqali ularning asosiy ta'limi, tayyorgarligini baholash;	$P \cdot \frac{30}{480} + \left\{ \begin{array}{l} \frac{N}{3}, \text{ agar } N \leq 6 \\ 2, \text{ agar } 6 < N \leq 30 \\ \frac{N/5}{3}, \text{ agar } N > 30 \end{array} \right\}$
Hujjatlarni rasmiylashtirish.	2

bunda: N – da'vo qilingan akkreditatsiya sohasiga muvofiq inspeksiya ob'ektlari turlarining soni (inspeksiya ob'ektining kodi);

P – da'vo qilingan akkreditatsiya sohasidagi xodimlar soni.

Metodikaning 1.1-bandiga ko'ra, akkreditatsiyadan o'tkazish uchun talab etiladigan mehnat hajmi "kishi/kun" birlikda ifodalanadi va bu hajm har bir akkreditatsiya turiga qarab alohida ko'rib chiqiladi. Jumladan, dastlabki akkreditatsiya bo'yicha hisob-kitoblar quyidagi 2-jadval asosida amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya jarayonining ilk bosqichi sifatida, ariza beruvchi tashkilot tomonidan taqdim etilgan hujjatlar – jumladan, sifat menejmenti tizimi va akkreditatsiya sohasi bo'yicha ma'lumotlar – batafsil o'rganiladi. Ushbu bosqichda mehnat sarfi quyidagicha belgilanadi: sifat tizimi bo'yicha ekspertiza uchun 2 kishi/kun, akkreditatsiya sohasi loyahasini baholash uchun esa $N \cdot 15 / 480$ formulasi (bu yerda N – obyektlar soni) asosida, shuningdek, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun 1 kishi/kun ajratiladi. Bu ko'rsatkichlar akkreditatsiya jarayonining tayyorlov bosqichida zarur inson resurslarini aniqlashga yordam beradi.

Baholash bosqichida ekspertlar tashkilotning amaliy faoliyatini o'rganadi. Jumladan, sifat tizimi ishlashining amalda qanday amalga oshirilayotgani, xodimlar malakasi va protseduralarning bajarilishi tahlil qilinadi. Bu jarayon uchun sifat tizimi ishlashini baholashga 2 kishi/kun, xodimlar malakasini aniqlashga esa $P \cdot 30 / 480 + (N$ ga bog'liq bo'lgan qiymat) ajratiladi. Bu yerda agar obyektlar soni 6 tadan ko'p bo'lsa $N/3$ birlik, agar 6 dan 30 ga qadar bo'lsa, 2 birlik, 30 dan ko'p bo'lsa, $(N/5)/3$ birlik qo'llaniladi. Baholash natijalarini hujjatlashtirish uchun esa yana 2 kishi/kun mehnat sarfi belgilanadi.

Agar inspeksiya organi akkreditatsiya sohasini kengaytirish bo'yicha ariza taqdim etsa, bu holda quyidagi 3-jadvalga murojaat qilinadi. Mazkur jadvalda akkreditatsiya jarayonida bajariladigan xizmatlar ro'yxati va ular uchun talab etiladigan haqiqiy mehnat hajmi — ya'ni «kishi/kun»da ifodalangan ish hajmi keltirilgan. Dastlabki bosqichda taqdim etilgan hujjatlarning ekspertizasi amalga oshiriladi, bunda akkreditatsiya sohasiga taalluqli qo'shimcha loyihalar va ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bu bosqichdagi ish hajmi inspeksiya ob'ektlari soniga (N) bog'liq bo'lib, formulada $N \times 15 / 480$ shaklida aniqlanadi.

3-jadval. Akkreditatsiya sohasini kengaytirish bo'yicha ishlarning haqiqiy mehnat hajmini hisoblash, T_f [11]

Xizmatlar ro'yxati	Ishlarning haqiqiy mehnat hajmi (T _f), kishi/kun
Taqdim etilgan hujjatlar tahlili (ekspertiza):	
ma'lumotlar va akkreditatsiya sohasiga qo'shimcha loyihasi tahlili (ekspertiza);	$N \cdot \frac{15}{480}$
Hujjatlarni rasmiylashtirish.	1
Joyning o'zida baholash:	
asosiy ma'lumotiga muvofiq xodimlarning malakasini baholash, shaxsiy kartalardagi ma'lumotlarni o'rganish, suhbatlar, xodimlar tomonidan murojaat qilingan sohada muvofqlikni baholash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini namoyish etish paytida kuzatish orqali ularning asosiy ta'limi, tayyorgarligini baholash;	$P \cdot \frac{30}{480} + \left\{ \begin{array}{l} \frac{N}{3}, \text{ agar } N \leq 6 \\ 2, \text{ agar } 6 < N \leq 30 \\ \frac{N/5}{3}, \text{ agar } N > 30 \end{array} \right\}$
Hujjatlarni rasmiylashtirish.	2

bunda: N – da'vo qilinayotgan akkreditatsiya sohasiga qo'shimcha loyihasi muvofiq inspeksiya ob'ektlari turlarining soni (inspeksiya ob'ektining kodi);

P – da'vo qilinayotgan akkreditatsiya sohasiga qo'shimcha loyihasi bo'yicha xodimlar soni.

Keyingi bosqichda joyning o'zida baholash jarayoni amalga oshiriladi. Bu yerda xodimlarning malakasi, shaxsiy ma'lumotlari, suhbat natijalari, amaliy ko'nikmalari va tayyorgarligi tahlil qilinadi. Ushbu baholash uchun zarur bo'lgan ish hajmi yuqoridagi 2-jadvaldagi kabi hisoblanadi. Bu yondashuv mehnat resurslarining aniq



rejalashtirilishi va xizmatlar qiymatini asosli belgilash imkonini beradi. Takroriy (qayta) akkreditatsiya holatlari esa 4-jadval asosida tartibga solinadi, bunda ilgari rad etilgan arizalar bo'yicha 6 oydan kechiktirmay qayta topshirilgan holatlar ham nazarda tutiladi.

1-formula:

$$T_{xodim} = P_1 \cdot \frac{15}{480} + P_2 \cdot \frac{30}{480} + \left\{ \begin{array}{l} \frac{N_1}{3}, \text{ agar } N_1 \leq 6 \\ 2, \text{ agar } 6 < N_1 \leq 30 \\ \frac{N_1}{5}, \text{ agar } N_1 > 30 \end{array} \right\} + \left\{ \begin{array}{l} \frac{N_2}{3}, \text{ agar } N_2 \leq 6 \\ 2, \text{ agar } 6 < N_2 \leq 30 \\ \frac{N_2}{5}, \text{ agar } N_2 > 30 \end{array} \right\}$$

bunda: P_1 – mavjud akkreditatsiya sohasi bo'yicha xodimlar soni;

P_2 – qayta akkreditatsiyadan o'tkazish doirasida mavjud xodimlarga qo'shilgan xodimlar soni.

4-jadval. Qayta akkreditatsiyadan o'tkazilganda, shuningdek oldingi ariza bo'yicha akkreditatsiyadan o'tkazish rad etilganidan keyin ariza qayta topshirilganda ishlarning haqiqiy mehnat hajmini hisoblash, T_f [11]

Xizmatlar ro'yxati	Ishlarning haqiqiy mehnat hajmi (Tf), kishi/kun
Taqdim etilgan hujjatlar tahlili (ekspertiza):	
ma'lumotlar va akkreditatsiya sohasiga loyihasi tahlili (ekspertiza);	$N_1 \cdot \frac{7,5}{480} + N_2 \cdot \frac{15}{480}$
Hujjatlarni rasmiylashtirish.	1
Joyning o'zida baholash:	
sifat tizimi menedjmenti ishlashini baholash;	2
asosiy ma'lumotiga muvofiq xodimlarning malakasini baholash, shaxsiy kartalardagi ma'lumotlarni o'rganish, suhbatlar, xodimlar tomonidan murojaat qilingan sohada muvofiqlikni baholash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini namoyish etish paytida kuzatish orqali ularning asosiy ta'limi, tayyorgarligini baholash;	T_{xodim} (1 – formula bo'yicha)
faoliyat yozuvlarini tahlil qilish;	$I \left\{ \begin{array}{l} 1, \text{ agar } N \leq 24 \\ 2, \text{ agar } 25 < N \leq 48 \\ 49 \text{ dan har } 120 \text{ ga } 1 \text{ kun qo'shiladi} \end{array} \right\}$
Hujjatlarni rasmiylashtirish.	2

bunda: N_1 – mavjud akkreditatsiya sohasiga muvofiq inspeksiya ob'ektlari turlarining soni (inspeksiya ob'ektining kodi);

N_2 – qayta akkreditatsiya qilish jarayonida kengaytirish uchun taqdim etilgan inspeksiya ob'ektlari turlari soni (inspeksiya ob'ekti kodi).

Mazkur jadvalda akkreditatsiya jarayonidagi asosiy xizmat turlari va ularni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat hajmi (T_f) ko'rsatilgan. Hujjatlar ekspertizasi bosqichida mavjud (N_1) va kengaytirilayotgan (N_2) inspeksiya ob'ektlari soniga qarab ish hajmi maxsus formula asosida hisoblanadi: $T_f = N_1 \cdot 7,5/480 + N_2 \cdot 15/480$.

Joyida baholash bosqichida tashkilotning sifat tizimi ishlash holati, xodimlar malakasi va faoliyat yozuvlari tahlil qilinadi. Xodimlarning ko'nikmalari suhbat, hujjatlar va amaliy kuzatish orqali baholanadi. Faoliyat yozuvlarini tahlil qilish uchun ajratiladigan vaqt esa inspeksiya ob'ektlari soniga bog'liq holda oshadi. Inspeksiya ob'ektlari soni 24 tadan kam bo'lsa 1 kun, 25-48 oralig'ida bo'lsa 2 kun, 49 tadan ko'p bo'lsa har 120 tashkilot uchun 1 kun qo'shib boriladi. Har bir bosqich yakunida hujjatlarni rasmiylashtirish uchun alohida ish kuni ajratiladi: ekspertiza uchun 1 kun, joyidagi baholashdan so'ng esa 2 kun. Barcha mehnat sarfi xizmatlar hajmini aniqlashda asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, inspeksiya o'tkazuvchi organlarning vakolatiga qo'yiladigan talablarni belgilovchi standartning yangi tahririga o'tishi (ya'ni mezonlarning yangilanishi) 5-jadval asosida mehnat hajmi hisob-kitob qilinadi.

Standartning yangi versiyasiga o'tishda tashkilotning sifat menejmenti tizimi bo'yicha akkreditatsiyani yangilash jarayonida bir nechta bosqichlar amalga oshiriladi. Avvalo, sifat tizimi menejmenti hujjatlari ekspertizasi o'tkazilib, bunga 2 kishi/kun ajratiladi. So'ngra ekspertiza natijalarini hujjatlashtirish uchun yana 1 kunlik ish sarflanadi. Joyida baholash bosqichida tizimning real ishlashi tekshiriladi (2 kun), shuningdek, xodimlarning



malakasi suhbat, kuzatish va hujjatlar orqali aniqlanadi. Bu baholashning ish hajmi $P \cdot 30/480$ formulasi asosida hisoblanadi, bunda P – tegishli sohadagi xodimlar soni.

5-jadval. Standartning yangi versiyasiga o'tishda ishning haqiqiy mehnat hajmini hisoblash, T_f [11]

Xizmatlar ro'yxati	Ishlarning haqiqiy mehnat hajmi (T_f), kishi/kun
Taqdim etilgan hujjatlar tahlili (ekspertiza):	
sifat tizimi menedjmenti hujjatlarini tahlili (ekspertiza);	2
Hujjatlarni rasmiylashtirish.	1
Joyning o'zida baholash:	
sifat tizimi menedjmenti ishlashini baholash;	2
asosiy ma'lumotiga muvofiq xodimlarning malakasini baholash, shaxsiy kartalardagi ma'lumotlarni o'rganish, suhbatlar, xodimlar tomonidan murojaat qilingan sohada muvofiqlikni baholash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini namoyish etish paytida kuzatish orqali ularning asosiy ta'limi, tayyorgarligini baholash;	$P * \frac{30}{480}$
Hujjatlarni rasmiylashtirish.	2

bunda: P – mavjud akkreditatsiya sohasi bo'yicha xodimlar soni.

Baholashdan so'ng, natijalarni rasmiylashtirish uchun yana 2 kishi/kun mehnat sarflanadi. Umuman olganda, barcha xizmatlar bo'yicha ishlarning haqiqiy mehnat hajmi (T_f) hujjatlar soni, xodimlar miqdori va baholash murakkabligiga qarab belgilanadi. Bu yondashuv baholash jarayonini aniqlik, shaffoflik va adolat tamoyillariga asoslanib tashkil etishni ta'minlaydi. Doimiy monitoring (davriy baholash) jarayonlari 6-jadval orqali hisob-kitob qilinadi.

6-jadval. Davriy baholashda ishning haqiqiy mehnat hajmini hisoblash, T_f [11]

Xizmatlar ro'yxati	Ishlarning haqiqiy mehnat hajmi (T_f), kishi/kun
Joyning o'zida baholash:	
sifat tizimi menedjmenti ishlashini baholash;	2
asosiy ma'lumotiga muvofiq xodimlarning malakasini baholash, shaxsiy kartalardagi ma'lumotlarni o'rganish, suhbatlar, xodimlar tomonidan murojaat qilingan sohada muvofiqlikni baholash bo'yicha faoliyatni amalga oshirish ko'nikmalarini namoyish etish paytida kuzatish orqali ularning asosiy ta'limi, tayyorgarligini baholash;	$\frac{N}{3}$, agar $N \leq 6$ 2, agar $6 < N \leq 30$ $\frac{N/5}{3}$, agar $N > 30$
faoliyat yozuvlarini tahlil qilish;	$I \left\{ \begin{array}{l} 1, \text{ agar } N \leq 24 \\ 2, \text{ agar } 25 < N \leq 48 \\ 49 \text{ dan har } 120 \text{ ga } 1 \text{ kun qo'shiladi} \end{array} \right\}$
Hujjatlarni rasmiylashtirish.	2

bunda: N – akkreditatsiya sohasiga ko'ra inspeksiya ob'ektlari turlarining soni (inspeksiya ob'ektining kodi).

Davriy baholash jarayonida tashkilotning sifat tizimi menejmenti va unga tegishli jarayonlar joyiga chiqqan holda tekshiriladi. Eng avvalo, sifat tizimi qanday ishlayotgani 2 kun davomida baholanadi. Bu baholashda tashkilot ichki tartib-qoidalariga, sifat siyosatiga va amaliyotdagi muvofiqlik holatiga alohida e'tibor qaratiladi. Shundan so'ng xodimlarning malakasi o'rganiladi, ya'ni ularning shaxsiy kartalari, suhbatlar, faoliyatdagi amaliy ko'nikmalari orqali bilim va tayyorgarligi tekshiriladi.

Xodimlarning malakasini baholash uchun mehnat hajmi maxsus formula orqali aniqlanadi. Agar inspeksiya ob'ektlari soni (N) 6 taga teng yoki kam bo'lsa, har 3 ta ob'ektga 1 kun ajratiladi ($N/3$). Agar 6 dan ortiq va 30 taga teng yoki kam bo'lsa, doimiy ravishda 2 kun talab etiladi. 30 dan ortiq bo'lsa, hisoblash: $(N/5)/3$ formulasi orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv tashkilot hajmi va faoliyat ko'lamiga mos, moslashuvchan tizimni ta'minlaydi.

Faoliyat yozuvlarini tahlil qilish ham baholashning muhim bosqichi bo'lib, bu yerda tashkilot yuritgan hujjatlar, audit yozuvlari va monitoring natijalari tekshiriladi. Faoliyat yozuvlari 2.5-jadvaldagi kabi hisob-kitob



qilib boriladi. Baholash yakunida esa 2 kun mehnat sarflanib, rasmiy hujjatlar tayyorlanadi. Bularning barchasi T_f — ya'ni ishning umumiy mehnat hajmini shakllantiradi.

Akkreditatsiya sohasini dolzarblashtirish bo'yicha ishlarning haqiqiy mehnat hajmini hisoblash mexanizmi 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval. Akkreditatsiya sohasini dolzarblashtirish bo'yicha ishlarning haqiqiy mehnat hajmini hisoblash, T_f [11]

Xizmatlar ro'yxati	Ishlarning haqiqiy mehnat hajmi (T_f), kishi/kun
Akkreditatsiya sohasini dolzarblashtirish;	$\frac{N * 1}{480}$
Hujjatlarni rasmiylashtirish.	2

bunda: N – akkreditatsiya sohasiga ko'ra inspeksiya ob'ektlari turlarining soni (inspeksiya ob'ektining kodi).

Akkreditatsiya sohasini dolzarblashtirish bo'yicha ishlarning haqiqiy mehnat hajmi inspeksiya ob'ektlari turlarining soniga qarab aniqlanadi. Har bir ob'ekt turi (ya'ni inspeksiya kodi) uchun 1 birlik mehnat hajmi belgilangan bo'lib, umumiy formula $(N \times 1) / 480$ ko'rinishida ifodalanadi. Bu yerda N – ob'ektlar soni, 480 esa yillik ish kunlari ekvivalentini bildiradi. Shunday qilib, dolzarblashtirishdagi ish hajmi ob'ektlar soniga mutanosib tarzda oshadi.

8-jadval. Guvohlik baholash bo'yicha ishlarning haqiqiy mehnat hajmini hisoblash, T_f [11]

Xizmatlar ro'yxati	Ishlarning haqiqiy mehnat hajmi (T_f), kishi/kun
Bitta kod (inspeksiya ob'ekti kodi) bo'yicha guvohlik baholashni o'tkazishda xodimlar tomonidan da'vo qilingan akkreditatsiya sohasi bo'yicha muvofiqlikni baholash faoliyatini amalga oshirish ko'nikmalarini namoyish etish paytida kuzatuvlar;	1
Bir nechta kod (inspeksiya ob'ekti kodi) bo'yicha guvohlik baholashni o'tkazishda xodimlar tomonidan da'vo qilingan akkreditatsiya sohasi bo'yicha muvofiqlikni baholash faoliyatini amalga oshirish ko'nikmalarini namoyish etish paytida kuzatuvlar;	$N * 0,5$
Guvohlik baholash natijasida hujjatlarni rasmiylashtirish.	0,5

bunda: N – akkreditatsiya sohasiga ko'ra inspeksiya ob'ektlari turlarining soni (inspeksiya ob'ektining kodi).

Hujjatlarni rasmiylashtirish esa akkreditatsiya hujjatlarini yozma va elektron ko'rinishda tayyorlash, tizimlarga kiritish kabi amaliy ishlarni o'z ichiga oladi. Bu xizmat turi uchun 2 kishi/kun mehnat hajmi belgilangan bo'lib, bu uni bajarish uchun ikki kishining bir kunlik ish vaqti talab qilinishini anglatadi.

Akkreditatsiyalash natijasi sifatida berilgan guvohnomalarning bahosi 8-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar asosida belgilanadi.

Guvohlik baholash bo'yicha ishlarning haqiqiy mehnat hajmi, asosan, inspeksiya ob'ektlari soni va baholov jarayonidagi kuzatuvlar asosida aniqlanadi. Agar baholash faqat bitta kod (ya'ni bitta inspeksiya ob'ekti turi) bo'yicha olib borilsa, kuzatuv uchun 1 kun mehnat hajmi ajratiladi. Ammo, agar bir nechta kod bo'yicha baholash amalga oshirilsa, har bir qo'shimcha kod uchun 0,5 kun mehnat hajmi belgilanadi va bu $N * 0,5$ formula orqali hisoblanadi.

Shuningdek, guvohlik baholash natijalariga asosan tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish ham talab etiladi. Ushbu ish turi uchun 0,5 kun mehnat hajmi belgilangan. Bu me'yor, baholash yakunida xulosa va protokollarni rasmiylashtirish, ularni tegishli axborot tizimlariga kiritish, yakuniy hisobotni tayyorlash kabi vazifalarga ajratilgan vaqt va resursni ifodalaydi. Shu tariqa, guvohlik baholashdagi umumiy mehnat hajmi baholov soni va murakkabligiga qarab shakllanadi.

Ushbu yondashuv inspeksiya o'tkazuvchi organlar faoliyatining murakkablik darajasini, akkreditatsiya sohasi tarkibini va arizachining avvalgi faoliyatini inobatga olgan holda, mehnat resurslarini samarali rejalashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu metodologiya akkreditatsiya xizmatlari narxini adolatli shakllantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahsulotlarning muvofiqligini baholash tizimi O'zbekistonda sifat va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy mexanizmi sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu jarayon normativ hujjatlar, xalqaro standartlar va texnik reglamentlarga asoslanib, mahsulotning belgilangan talablarga javob berishini sinovlar va ekspertiza orqali aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, muvofiqlikni baholash bozor ishtirokchilari o'rtasida ishonchni kuchaytiradi, texnik to'siqlarni kamaytiradi hamda ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Akkreditatsiya jarayoni esa muvofiqlik baholash organlari faoliyatining ishonchligini kafolatlash bilan birga, ularni xalqaro darajada tan olinishini ham ta'minlaydi. "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" tomonidan amalga oshiriladigan ushbu jarayon ariza topshirish, hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish, joyida audit o'tkazish va yakuniy qaror qabul qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Odatda 3–6 oy davom etadigan ushbu jarayonning xarajatleri hujjatlar ekspertizasi, auditorlik xizmati va tashkiliy ishlardan tarkib topadi.

Umuman olganda, akkreditatsiya tizimi mamlakatimizda xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sertifikatlangan mahsulotlar nafaqat ichki bozor, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardosh bo'lib, iqtisodiy barqarorlikka sezilarli hissa qo'shadi. Shu sababli, muvofiqlikni baholash va akkreditatsiya jarayonlarini yanada takomillashtirish O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Fikrimizcha, mahsulotlarning muvofiqligini baholash amaliyotini takomillashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Mahalliy bozorlar uchun mo'ljallangan mahsulotlar muvofiqligini tasdiqlashni xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq;

IECEE tomonidan xalqaro miqyosda tan olingan muvofiqlikni baholash tartib-taomillarini joriy etish lozim;

Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyalash jarayonida ILAC va IAF xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari doirasida amal qiluvchi o'zaro tan olish belgilarini tatbiq etish maqsadga muvofiq;

Muvofiqlikni baholash organlari tomonidan akkreditatsiyadan o'tilgan holda mahsulotlarni sertifikatlashtirish jarayonini yo'lga qo'yish eksport faoliyatida byurokratik to'siqlarni kamaytirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni. 2023-yil 27-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3643-son qarori. 2018-yil 30-mart.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 349-sonli qarori. 2019-yil 24-aprel.
4. ISO 3534-2:2006 (2006) Statistics—Vocabulary and symbols— Part 2: Applied statistics. International Organization for Standardization, Geneva, Switzerland.
5. Rostron PD, Fearn T, Ramsey MH (2020) Confidence intervals for robust estimates of measurement uncertainty. *Accreditat Qual Assurance J Qual Comparabil Reliabil Chem Measure* 25:107– 119. <https://doi.org/10.1007/s00769-019-01417-4>.
6. Alex W, Bertil M (eds) (2021) EURACHEM/CITAC Guide "Use of uncertainty information in compliance assessment" 2nd Ed., available from <http://www.eurachem.org>.
7. S.Mjakuškina, I.Lapiņa. Product Conformity Assessment within the Integrated Management System: Manufacturing Compliance and Customer Safety. *Proceedings of The 22nd World Multi-Conference on Systemics, Cybernetics and Informatics (WMSCI 2018)*. P. 19-24.
8. Gallup, A.M., 2008. *The Gallup Poll Cumulative Index: Public Opinion, 1998-2007*. Rowman and Littlefield, Lanham, Maryland.
9. Воротынцева Т.М. Подтверждение соответствия товаров как механизм регулирования международной торговли // *Вестник ГУУ, Экономика: проблемы, решения и перспективы*. 2016. №5. С.57-59.
10. Yusupov T. Bozorda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda sanoat sohalari metrologik ta'minotini rivojlantirishning asosiy jihatlari. *Development of science*. Vol. 4, April 2025/4. 230-238.
11. "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat muassasasining rasmiy veb sahifasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>